



TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-15, (March) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

NORQOBILOV Dovudbek Alimardonovich
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
talabasi*

O'ZBEK MILLIY SAN'ATIMIZDAGI BASTAKORLIK YO'NALISHNING TUTGAN O'RNI

VII - X - asrlarda turli marosim va mexnat mavzulari uzoq o'tmishdan bastakorlar ijodida ustuvor o'rin egallab kelgan. Bastakorlar o'z faoliyatini dastlab xalq orasida, muayyan urf-odatlar, ba'zi rivoyatlar va xatto yaxlit yil tavgimi tizimi bilan bog'liq mavzularni o'z asarlarida aks ettiradilar. Tabiiyki asosan bastakorlik san'ati, taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan, va bularga o'xshash murakkab shaklli asarlarda davr xaroratiga emas, balki o'nlab ijodkorlar tafakkuri, dunyo qarashlari va badiiy umumlashmalari o'z aksini topgan.

Musiqa folklor mumtoz musiqa, bastakorlik ijodiyoti an'analari zaminida arablar istilosiga qadar shakllangan edi. Shu bilan birga badiiy adabiyotda xamnoma, bayoz, munozara kabi janrlar vositasida nazmiy - musiqiy tafakkur uyg'unlashishi namunalarini uchratish mumkin. Musiqa san'ati axliga homiylik bobida Temuriylar an'anasini Nodirabegim, Muhammad Rahimxon Soniy, Amir Olimxonlar taxtga o'tirgan yillarini davom ettirishgan. G'arbda shakllangan musiqiy yaratuvchilik yo'nalishida esa Musiqa san'atining kasbiylik an'analari yuzaga kelgan mumtoz namunalar, xalq marosimlari jarayonida yaratilib kelingan kuy va qo'shiqlar o'ziga xos an'alar asosiy zamonlar osha yashab rivojlanib kelmoqda. Odatda bastakorlik ijodiyoti bir-biridan kelib chiqqa holda ikki qatlamga bo'linadi. Birinchi qatlam, xalq musiqa ijodiyoti, ya'ni xalq tomonidan yaratilib kelingan folklor musiqasidir. Ikkinchisi – musiqa ijrochiligi amaliyoti, merosi bo'yicha muayyan bilimga ega bo'lgan shaxs ya'ni bastakorlar ijodiyoti natijasida yaratilgan mumtoz musiqiy asarlardir. Bastakorlik ijodi va umumman musiqa san'atining turli yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar, IX – XVII – asrlarda yashab ijod etgan Alkindiy, Abu Abdulloh, Al – Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomey, Darvish Ali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga bag'ishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida ochiq bayon etilgan. Risolalarda qayd etilishicha, musiqaning nazariyasi va amaliyoti azal – azaldan o'zaro bog'liq holda shakllanib kelgan.

Amir Temur va Temuriylar davri O'rta va yaqin Sharq xalqlari musiqa san'atining rivojlangan ya'ni uyg'unlashish davri bo'lganligi e'tirof etilgan. Ushbu davrda ilm – fan har tomonlama taraqqiyot topdi. Musiqa san'atiga xos barcha yo'nalishlar ya'ni ilmiy va amaliy jarayon bir – biriga uyg'un holda kamolikka erishadilar. Shu kabi ular qatorida bastakorlik ijodi o'zining eng samarali kamolot davrini o'tadi.

Bastakorlik hayotining keyingi bosqichi, maqomlar orasida yuzaga kelgan behisob namunalarini tashkil etadi. Ushbu namunalar musiqa ijodiyotida ovoza va shuba nomlari bilan mashhurdir. Faqatgina shuba nomlarining o'zida, ushbu davrda bastakorlik ijodi ravnaq topganligini ko'rish mumkin. Xususan musiqa ijodiyotidagi shubalar manbaalarda quyidagicha tartibda keltirilgan. Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Ashiran, Navro'zi arab, Mohur, Navro'zi xoro, Navro'zi bayotiy, Hisor, Nuhuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarqa, Rakb, Navro'zi sabo, Humoyun, Zovuliy, Isfahonak, Ro'yi iroq, Bastaiy nigor va Navro'zi ajam kabilardur.

Temuriylar davri bastakorlari xususida teran va mazmunli ma'lumotlar mavjuddur. Asosiy maqsadimiz, ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz musiqa ijodkorlari, millatimizning ma'naviy dunyosini ohanglarda ifoda etib kelgan namoyondalar, ko'p asrli tarixni bosib o'tib, o'zining muayyan musiqiy an'alarini avloddan – avlodga boyitib kelgan bastakorlik ijodiyoti va tarixi taraqqiyot yo'lini bilib va unga hissa qo'shgan avlodlarning ilmiy va ijodiy me'rosini ardoqlashimiz zarurdurlar.

Kelajakda ijodiy ishlarida ushbu an'analarga asoslanib, zamon talabi doirasida ijod etishda zamonaviy va umumbashariy jihatlarni inobatga olgan holda munosabatda bo'lishidir. Shuni ta'kidlab o'tamanki, O'zbek xalqining milliy qo'shiqchilik san'atida aylanib kelgan o'zbek milliy qo'shiqlarimiz, maqomlar, yallalar va turli xildagi turkum asarlarimizni yetuk asar bo'lib sayqal topishida, qadimdan xalq orasida yetishib chiqqan san'tkorlar, xonanda, sozanda va ayniqsa bastakorlarning o'rni juda beqiyosdurlar. Shuning uchun ham biz o'zbek xalqi O'zbek milliy san'timizda bastakorlarimizga bo'lgan mehr – oqibat boshqacha tarzda yaqqol sezilib turadilar.